



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganish	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA	CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
		Turumbetova Aygul Yusupbaevna	
		Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
		Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	
		Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
		Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	
		Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
		Ermatova Robiya Bekjonali qizi	
		The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
		Ismailova Shaira Ferdausovna	
		Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners	204
		Maqsudova Gulnoz Olimovna	
		Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
		Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	
		Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
		Sharipova Muhabbat Erkinovna	
		Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
		Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	
		Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv	222
		Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	
		O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili	227
		Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	
		Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	229
		Safarova Madina Azamat qizi	
		Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
		Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	
		Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века	239
		Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб	
		Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана	242
		Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA GAMIFIKATSION TOPSHIRIQLAR ASOSIDA DIVERGENT FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK MEXANIZMLARI

Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich
Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://orcid.org/0000-0003-1808-1913>

Saloydiova Sevaraxon Mahammadsharif qizi
Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: O'quvchilarning ijodiy fikrlashi, muammolarga turli nuqtayi nazardan yondasha olishi va nostandart yechimlar topish qobiliyatlarini shakllantirish, shuningdek, o'yin texnologiyalari yordamida o'quvchilar motivatsiyasini oshirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida divergent fikrlashni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari hamda gamifikatsion topshiriqlarning didaktik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida gamifikatsiya elementlari asosida tashkil etilgan ta'lim faoliyatining divergent fikrlash ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Maqola doirasida gamifikatsion topshiriqlarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish hamda divergent fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik mexanizmlar yoritilgan. Tadqiqot natijalari gamifikatsion yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, kreativligi, ijodkorligi, muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishi, o'quv motivatsiyasining oshishi hamda konvergent fikrlashga nisbatan divergent fikrlashni rivojlantirishida muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: gamifikatsiya, divergent fikrlash, kreativlik, ijodkorlik, boshlang'ich ta'lim, didaktik mexanizm, o'quv motivatsiyasi, innovatsion pedagogika, ta'lim texnologiyalari.

Abstract: The development of students' creative thinking, the ability to approach problems from different perspectives and find non-standard solutions, as well as increasing students' motivation through game-based technologies, are among the important tasks of the modern educational process. This article analyzes the pedagogical possibilities of developing divergent thinking in primary school students and the didactic significance of gamification-based tasks. During the study, the impact of educational activities organized on the basis of gamification elements on indicators of divergent thinking was examined. The article highlights the didactic mechanisms that facilitate the integration of gamification tasks into the educational process and contribute to the development of divergent thinking. The results of the study show that the gamification approach is an important factor in enhancing students' independent thinking, creativity, innovativeness, divergent thinking as opposed to convergent thinking, effective decision-making in problem situations, and learning motivation.

Key words: gamification, divergent thinking, creativity, innovativeness, primary education, didactic mechanism, learning motivation, innovative pedagogy, educational technologies.

Аннотация: Формирование у учащихся творческого мышления, способности подходить к проблемам с разных точек зрения и находить нестандартные решения, а также повышение мотивации учащихся с помощью игровых технологий являются важными задачами современного образовательного процесса. В данной статье анализируются педагогические возможности развития дивергентного мышления у учащихся начальной школы и дидактическое значение заданий с элементами геймификации. В ходе исследования изучалось влияние учебной деятельности, организованной на основе элементов геймификации, на показатели дивергентного мышления. В статье освещаются дидактические механизмы интеграции заданий с элементами геймификации в образовательный процесс и развития дивергентного мышления. Результаты исследования показывают, что геймификационный подход является важным фактором повышения самостоятельности учащихся, креативности, творческих способностей, развития дивергентного мышления по сравнению с конвергентным, эффективности принятия решений в проблемных ситуациях и мотивации к обучению.

Ключевые слова: геймификация, дивергентное мышление, креативность, творческие способности, начальное образование, дидактический механизм, мотивация к обучению, инновационная педагогика, образовательные технологии.

KIRISH

XXI asr ko'nikmalari sifatida e'tirof etilayotgan kreativlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvlar ta'limning barcha bosqichlarida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida mazkur ko'nikmalarni shakllantirish keyingi ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Shunday ekan, bugungi kunda ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishdan iboratdir. Sababi, bola xotirasi boshlang'ich ta'lim (6-10 yosh) davrida shakllanadigan va uzoq vaqt saqlanib qoladigan davr hisoblanadi. Bu yoshda berilgan bilimlar va o'rgatilgan yo'l-yo'riqlar keyingi davrlarda, ya'ni yuqori sinflarda, mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Divergent fikrlash insonning bitta muammo yoki vaziyatga nisbatan bir nechta original va muqobil yechimlarni taklif eta olish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu fikrlash turi o'quvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon etishi, mustaqil qaror qabul qilishi va murakkab vaziyatlarda moslashuvchan yondashuvlarni ishlab chiqishida muhim rol o'ynaydi. Divergent fikrlash va divergent tafakkur bir xil tushuncha bo'lib, inson tafakkuridagi o'yxayollarni erkin va turli yo'nalishlarda ifodalash qobiliyatini anglatadi. "Divergent fikrlash – bu bir necha mumkin bo'lgan yechimlarni o'rganish orqali ijodiy g'oyalarni yaratish uchun foydalaniladigan fikrlash jarayonidir" [3].

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar divergent fikrlashning erta yoshdan boshlab rivojlantirilishi yuqori natijalar berishini ko'rsatmoqda. Sababi, yuqorida ta'kidlanganidek, bola tafakkuri va tasavvurining erkin namoyon bo'lishi uni mustaqil fikrlashga, o'z fikrini qo'rqmasdan bildirishga, muammoli vaziyatlarda yechim topishga, ijodiy va tanqidiy fikrlashga, eng muhimi esa jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, divergent fikrlash ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda ham samarali natija beradi. "Ijodkorlik – bu shaxsning yangi, original va qadriyatga ega bo'lgan g'oyalarni yaratishga qodirlik darajasi bo'lib, kreativ tafakkur, intuitsiya, moslashuvchanlik va divergent fikrlash kabi psixologik mexanizmlarga tayanadi" [5].

"Zamonaviy pedagogik amaliyotda ijodkorlik va kreativ tafakkurni rivojlantirish jarayoni ilmiy asoslangan, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar orqali samarali tashkil etiladi. Ushbu texnologiyalar bolaning ijodiy salohiyatini faollashtirish, muammoli vaziyatlarda mustaqil va noodatiy fikrlashni rag'batlantirish hamda innovatsion yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi" [1]. Bunda, albatta, o'yinga asoslangan texnologiyalar, xususan, gamifikatsiya divergent fikrlashni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega hisoblanadi.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda ta'lim jarayonida gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish keng ommalashmoqda. Gamifikatsiya o'yin mexanizmlari va elementlarini noo'yin kontekstiga tatbiq etish orqali ta'lim jarayonining qiziqarliligi hamda samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. "Gamifikatsiya esa o'quv jarayoniga o'yin mexanikasini integratsiya qilish orqali o'quvchini qiziqtiruvchi, muammoli vaziyatlarga faol kirisha oluvchi subyektga aylantiradi" [4]. Ballar, darajalar, reytinglar, mukofotlar va interaktiv topshiriqlar o'quvchilarni dars mashg'ulotlari davomida faol ishtirok etishga undaydi. Shu bois gamifikatsion topshiriqlar o'quvchi shaxsida, uning yoshi va psixologik xususiyatlariga mos ravishda, divergent fikrlashni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratishga asos bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'plab pedagogik tadqiqotlarda kreativ fikrlashni rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuv va interaktiv metodlarning samaradorligi keng yoritilgan. Biroq gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari yetarlicha tizimli o'rganilmagan. Shu sababli mazkur masala zamonaviy pedagogika uchun dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

K.S. O'rinboevaning ta'kidlashicha, "So'nggi yillarda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda gamifikatsion yondashuvlar va raqamli platformalardan foydalanish masalasi ko'plab olimlar va amaliyotchilar diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Xususan, V.P. Bepalko, P.Ya. Galperin, A.N. Leontev kabi rus olimlari o'quv jarayonining psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qilar ekan, ta'limda motivatsiya va faol ishtirokning o'quvchilar intellektual rivojlantirishiga kuchli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaganlar" [6].


Eshmuradov Ulug'bek Ziyadullayevich esa gamifikatsiyaning o'quv jarayonini yanada qiziqarli qilishdagi ahamiyati haqida o'z fikrlarini bildirgan. "Ta'lim jarayonida gamifikatsiya o'quvchilar faoliyatini interaktivlashtirish, bilimga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish va o'quv jarayonini rag'batlantirish uchun samarali vosita sifatida qo'llaniladi" [2].

Gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari muammoli vaziyatlar yaratish, rol o'ynash texnologiyalaridan foydalanish, aqliy hujum usullarini qo'llash, rag'batlantirish hamda o'yin faoliyatini tashkil etish orqali namoyon bo'ladi. Ushbu mexanizmlar o'quvchilarning bir muammoga nisbatan turli yechimlarni ilgari surishi, yangi g'oyalar yaratishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Tadqiqotda nazariy, empirik va gamifikatsiya elementlariga asoslangan o'yin metodlaridan foydalanildi. Nazariy bosqichda ilmiy adabiyotlar, gamifikatsiya va divergent fikrlashga oid tadqiqotlar hamda olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Empirik bosqichda esa kuzatish, pedagogik tajriba, suhbat va diagnostik baholash metodlari qo'llanildi.

O'yin bosqichi quyidagicha tashkil etildi: "Bir vaziyat – ko'p yechim". O'qituvchi tomonidan yechimi topilishi lozim bo'lgan topshiriq taqdim etiladi. O'quvchilar yakka tartibda yoki jamoalarda topshiriq bilan tanishadilar. Belgilangan vaqt davomida topshiriqning imkon qadar ko'proq yechim variantlarini topishlari kerak. Har bir yechim qisqa va aniq asoslab beriladi. Takrorlangan yechimlar hisobga olinmaydi, original va amaliy takliflarga ustuvorlik beriladi. Vaqt tugagach, ishtirokchilar o'z yechimlarini taqdim etadilar. Eng ko'p va eng samarali yechim taklif qilgan ishtirokchi yoki jamoa g'olib deb topiladi. Har bir maqbul yechim uchun – 1 ball; Original va innovatsion yechim uchun – qo'shimcha 2 ball; Eng samarali yechim uchun – qo'shimcha 3 ball beriladi. O'yin yakunida ishtirokchilar turli vaziyatlarga bir nechta nuqtai nazardan yondashish, muammolarga kreativ yechim topish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydilar. Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun gamifikatsion topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu topshiriqlar quyidagi komponentlarni o'z ichiga oldi.



1-rasm: Gamifikatsion topshiriqlar tizimi

Tajriba davomida divergent fikrlashning quyidagi mezonlari baholandi: G'oyalar soni (fikrlar oqimining tezligi); Moslashuvchanlik; Originallik; Takomillashtirish qobiliyati.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari gamifikatsion topshiriqlardan muntazam foydalanish o'quvchilarning divergent fikrlash ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaganligini ko'rsatdi. O'quvchilar tomonidan taklif etilgan g'oyalar soni ortdi, muammolarga turlicha yondashish darajasi kuchaydi hamda original fikrlar ulushi oshdi. Ayniqsa, "Bir vaziyat – ko'p yechim" nomli gamifikatsion topshiriq o'quvchilarning nostandart fikrlash faolligini rag'batlantirdi.

O'yin elementlari ishtirokchilarda raqobat, qiziqish va muvaffaqiyatga erishish istagini kuchaytirib, ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga xizmat qildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, gamifikatsion topshiriqlar bilan ishlagan o'quvchilarda ijodiy tashabbuskorlik va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq darajada shakllangan.

B. B. Xolmurodov gamifikatsiya oddiy o'yin emas, balki ta'lim jarayoniga rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kirituvchi omil ekanligi haqida quyidagi fikrni bildirdi: "Ushbu metodikadan foydalanish ta'lim jarayonini nafaqat qiziqarli, balki maqsadga yo'naltirilgan va samarali qilish imkonini beradi" [7].

Olingan natijalarga ko'ra, gamifikatsiya o'quvchilarning emotsional faolligini oshirish orqali bilish faoliyatini kuchaytiradi. Divergent fikrlash esa aynan erkin va qo'llab-quvvatlovchi muhitda samarali rivojlanadi. Tahlillar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning quyidagi didaktik mexanizmlari aniqlandi:

1. Motivatsion mexanizm;
2. Kreativ faoliyat mexanizmi;
3. Refleksiv baholash mexanizmi;
4. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish mexanizmi;
5. Muammoli vaziyatlarni modellashtirish mexanizmi;
6. Rag'batlantirish va mukofotlash mexanizmi.

Mazkur mexanizmlar o'zaro integratsiyalashgan holda o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida divergent fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari gamifikatsion topshiriqlar ushbu jarayonning samarali pedagogik vositasi ekanligini tasdiqladi. Gamifikatsiya elementlari asosida tashkil etilgan ta'lim faoliyati o'quvchilarning kreativligi, mustaqil fikrlashi, muammolarga innovatsion yondashuvi hamda o'quv motivatsiyasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Divergent fikrlashni shakllantirishning motivatsion, kreativ, refleksiv va hamkorlikka asoslangan didaktik mexanizmlarini ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida gamifikatsion topshiriqlarni raqamli ta'lim platformalari bilan integratsiyalash hamda ularning kreativ kompetensiyalar rivojiga ta'sirini chuqur o'rganish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimova, D. Sh. Bola shaxsini shakllantirishda ijodkorlik va kreativ tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari // Journal of New Century Innovations. – 2026. – T. 93. – № 1. – B. 204-209.
2. Eshmuradov, U. Z. Gamifikatsiya vositalari orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishning psixologik mexanizmlari // Global Science Review. – 2026. – T. 11. – № 1. – B. 310-316.
3. Holiqova, M. K. Talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda divergent tafakkur ahamiyatining nazariy tahlili // Science and Education. – 2025. – T. 6. – № 2. – B. 370-374.
4. Mirzaxolmatovna, X. Z. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida divergent fikrlashni rivojlantirishda raqamli gamifikatsion vositalarning pedagogik samaradorligi // Fergana Methodical School. – 2025. – № 3. – B. 168-173.
5. Rahmatullayeva, M. G'. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish // Singapore International Scientific Conference. – 2026. – T. 1. – № 3. – B. 118-122.
6. O'rinboyeva, K. S., Parpiyeva, O. S. Gamifikatsion o'yin elementlari yordamida o'quvchilarda fizika fanidan ijodiy va analitik fikrlashni shakllantirish // Inter Education & Global Study. – 2025. – T. 3. – № 10(1). – B. 345-356.
7. Xolmurodov, B. B. Talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini gamifikatsiya yordamida rivojlantirish // Inter Education & Global Study. – 2025. – T. 3. – № 7. – B. 29-35.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.